

**O'ZBEK ANTROPONIMIKASIDA KISHI ISM-SHARIFINI IFODALASHNING  
LISONIY MOTIVLARI**

**Dono Usmonova Sotvoldiyevna**

*Farg'ona Davlat Universiteti Ingliz tili kafedrasi katta o`qituvchisi,*

**Muxtaram Komilova Xotamjon qizi**

*Farg'ona Davlat Universiteti Lingvistika: ingliz tili 2-kurs magistranti*

<http://komilovabdurasid3@gmail.com>

**Annotatsiya:** Maqolada ota onalarning farzandiga chirolyi, mazmundor ism qo'yishlari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Shuningdek, ismlarimizda milliy ruhning saqlanishi, ular ona tilimiz qonuniyat va talablariga mos bo'lishi kerakligi ko'rsatib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** vasiylik va homiylik, chirolyi va mazmundor ism, familiya va otasining ismi, ismlar, ism qo'yish.

Insonga qo'yilgan ism uning kelajakda qanday inson bo'lishligiga ishora ham sanaladi. Ism egasining xarakter xususiyatini, psixologik qiyofasini, xissiyotlarini hatto kelajagini o'zida aks ettirishi mumkinligi borasidagi fikrlar ham yo'q emas. Ism qo'yishda mazkur holatlarga e'tibor berilsa foydadan holi bo'lmaydi. Ismga e'tibor chaqaloqqa ism tanlashdan va uni tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma (metrka)ga yozishdan boshlanadi. Amaldagi qonunlarga binoan, bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan qo'yiladi, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari buni hisobga olishga majbur. Bolaga ism qo'yishda ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, mazkur nizo vasiylik va homiylik organi tomonidan bola, shuningdek, uning ota-onasi manfaatlarini e'tiborga olib hal etiladi. Har bir ota-ona orziqib kutgan farzandiga chirolyi va mazmundor ism qo'yishga harakat qiladi. Ba'zi ota-onalar bolaga qanday ism qo'yish haqida farzandi dunyoga kelishidan oldinroq o'ylab qo'yadilar, ko'p hollarda ismlarni kitoblardan izlaydilar. Shuningdek, ota-onalar kishilarning ismiga ham ahamiyat berib yuradilar. Ular qarindosh-urug', qo'ni-ko'shni yoki tanish-bilishlar orasida piru badavlat, baxtli-taxtli, unib-o'sgan kishilar bo'lsa, kelajakda (katta bo'lganida) mening bolam ham o'shalarga o'xshab baxtli bo'lib yursin, deb havas bilan ularning ismlarini bolalariga qo'yadilar. Ota-onalar farzandlariga ism tanlayotganlarida uning avvalo ma'nosini, kelib chiqish tarixini bilishlari kerak.

Chaqaloqqa nom qo'yish, munosib ism tanlash qadimgi davrlardan ota-ona, qarindosh-urug'larning erkin huquqi bo'lgan.<sup>52</sup> Har bir xalq ism tanlashda o'z ona tilining so'z boyligi, imkoniyatlariga tayangan. Farzandlarga ism tanlashda nimalarga e'tibor berishimiz kerak? Bolaga ism tanlash ishiga jiddiy o'ylab, iloji boricha an'analarga bog'lab yondoshish lozim. Chaqaloqqa ism tanlaganda tildagi mavjud, tayyor nomlardan foydalanish bilan bir qatorda yangi, diqqatni tortuvchi, o'ziga xos ismlar ustida izlanish lozim. Ismlarimizda milliy ruhning saqlanishi, ular ona tilimiz qonuniyat va talablariga mos

<sup>52</sup> <https://shifo.uz/article/bolaga-chirolyi-ism-qo-039-yish-lozim>



bo'lishi kerak. Ismni faqatgina tanlash va qo'yishgina yetmaydi, uni asray bilish ham lozim. Avvalo ism, familiya va otasining ismi shaxsning rasmiy hujjatlarida to'g'ri, xatosiz yozilmog'i kerak. Bolaning ismini turli shakllarda o'zgartirib, erkalatib aytishni taqiqlab bo'lmaydi. Ammo nomning mana shu erkalash tufayli buzilgan shakli ismning asosiy to'liq shakli o'rniga o'tib qolishiga va rasmiy hujjatlarda buzilgan holatda yozilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Farzandga yaxshi ism qo'yanidan keyin uni chala-yarim qilmay, to'liq va go'zal talaffuz qilish lozim. Afsus, ba'zi oilalarda ismni qisqartirib chaqirish odat tusiga kirgan. Masalan, «Abdulloh»ni (Allohning bandasi) «Abdi», «Abdul» deyishadi, bu ish ism egasiga ham, Parvardigorga ham katta hurmatsizlikdir.

Bolaga chiroyli ism qo'yish ota-onaning farzand oldidagi mas'uliyatlaridan hisoblanadi. Islom tarixida bo'lib o'tgan ajoyib hodisalardan xabardor har bir ota-ona qanday sharoitda bo'lmasin, farzandiga chiroyli, ma'nosi ham go'zal ism qo'yishga harakat qiladi. Zero, ism o'z egasining xulq-atvoriga, hatto taqdiriga ham ta'sir qilishi aytilgan.

Bola tug'ilganida ko'pincha ota-onalar unga qanday ism qo'yishga o'ylanib qolishadi.<sup>53</sup> Lekin ko'p bosh qotirmay, ma'nosi g'aliz, tumtaroq ismlarni qo'yib yuborishadi. Shu qo'yiladigan ism bola bilan nafaqat foni dunyoda, balki qiyomatda, jannat yo do'zahda ham birga bo'ladi. Bu mavzuga aloqador hadislarda aytiladi. Ibn Umardan (roziyallohu anhu) rivoyat qilinishicha, Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): «Darhaqiqat, Alloh taologa eng yoqadigan ismlaringiz "Abdulloh" va "Abdurrahman"», dedilar. Hadisda ism qanday bo'lishi kerakligi ochiq bayon qilingan. Kishi o'zining Alloh taologa suyukli ekanini bildirmoqchi bo'lsa, «Abdu...» bilan boshlanadigan ismlarni qo'ysin, chunki bunday ismlar inson Alloh taoloning quli ekanini hamisha bildirib turadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/oilada-farzand-tarbiyasi-chiroyli-ism-quyish>
2. <https://shifo.uz/article/bolaga-chiroyli-ism-qo-039-yish-lozim>
3. Begmatov E., O'zbek ismlari ma'nosi, T., 1998;
4. G'afurov O., Asmaulhusna yoxud tabarruk ismlar, 1-2-qism, T., 1998.
5. Rakhmatillo Shukurov Mirzatillayevich, Ahmadjonov Nurbek Zokirjonogli //Precedent names in the artistic text as allusive names// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 8 August 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. P. 46-52 pages.
6. NZO AHMADJONOV //ANALYSIS OF POETONYMS USED IN POETRY// International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 12, volume 104 published December 30, 2021 P. 509-512 pages.
7. AN Zokirjon o'gli, AS Baxromjon o'g'li //ANALYSIS OF POETONYMS IN PROSE WORKS// Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. Volume 10, Issue 2, February, 2022 ISSN: 2347-6915 SJIF Impact Factor: 7.472 P. 487-490 pages.

<sup>53</sup><https://aniq.uz/uz/yangiliklar/oilada-farzand-tarbiyasi-chiroyli-ism-quyish>



8. Н.Ахмаджонов, А Рўзиматова //ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР НЕМИС ХАЛҚИ МИЛЛИЙ МАДАНИЯТИНИНГ КЎЗГУСИДИР// О'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 10-son. 20.08.2022. 104-109 betlar.
9. N.AKHMADJONOV //Phraseological units is a mirror of the German national culture// Scientific journal of the Fergana State University, 2018 №2. 83-85.
10. Зера Таировна Исаева //АНТРОПОЦЕНТРИЗМ - НОВАЯ НАУЧНАЯ ПАРАДИГМА В «АКТИВНОЙ ЛЕКСИКОЛОГИИ»// GOLDEN BRAIN Multidisciplinary Scientific Journal. VOLUME 1 | ISSUE 9 | APRIL, 2023. 156-162 pages.
11. Исаева Зера Таировна //ИДЕНТИФИКАЦИЯ ПАРАДИГМАТИКИ И СИНТАГМАТИКИ В КОРПУСНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ// International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11| Issue-4| 2023. 259-264 pages.
12. Исаева Зера Таировна // СИНТАГМАТИКА И ПАРАДИГМАТИКА КАК ТИПЫ ОТНОШЕНИЙ И СВЯЗИ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 9(100), часть 1. апрель, 2023 г. 92-96 стр.
13. Топволдиев Казбек Ахмадалиевич, Бурхониддинов Баҳтиёр Расулжон угли //ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЗАРУБЕЖНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ШКОЛЕ// PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. Copenhagen "Science Edition" 17 April 2023. PART 22. 27-30 pages.
14. Ильязбеков Марат, Топволдиев Казбек //КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ НА УРОКАХ ЗАРУБЕЖНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ// INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE: a collection of scientific works of the International scientific online conference (15 th April, 2023) – Great Britain, London: "CESS", 2023. Part 8. 26-29 pages.
15. Исаева Зера Таировна //СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center. Volume 3 Issue 5, Part 2 May 2023. 151-154 pages.
16. Laura A. THE MAIN APPROACHES TO THE STUDY OF THE DIFFICULT LIFE SITUATION IN SOCIO-PSYCHOLOGICAL RESEARCH //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
17. Ахтямов Азизбой Эркинбоевич //РЕКЛАМНЫЕ ТЕКСТЫ И РАЗВЕРТЫВАНИЕ ТЕМЫ В РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ// PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. Copenhagen "Science Edition" 17 April 2023. PART 22. 132-135 pages.
18. N.A.Xoshimova, A.Ro'zimatova //INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH// MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH: a collection scientific works of the International scientific conference (10 July, 2022) - Berlin:2022. 166-170 pages.